

2-SINFDA JARANGLI VA JARANGSIZ UNDOSHLAR O'RGATISH METODIKASI

Jahonova Nargiza Yunus qizi

Zarmed universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

jaxonovanargiza@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada 2-sinf ona tili darslarida undoshlarni o'qitishning usul va yo'llari haqida so'z boradi. Jarangli va jarangsiz undoshlar tasnifiga alohiqa to'xtanilgan va boshlang'ich sinf o'quvchilariga undoshlarni o'rgatishga doir darslikdagi mashqlar bir qator tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** undosh harf, jarangli undosh, jarangsiz undosh, ovoz va shovqin, talaffuz, me'yor, Milliy dastur, darslik, imlo, mashq.*

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ЗВУКОВЫМ И НЕЗВОНКИМ СОГЛАСНЫМ ВО 2 КЛАССЕ

***Абстрактный.** В данной статье говорится о методах и способах обучения согласным звукам на уроках родного языка во 2 классе. Отдельно рассмотрена классификация звонких и глухих согласных, а также проанализирован ряд упражнений учебника по обучению согласных учащихся начальной школы.*

***Ключевые слова:** согласная буква, звонкая согласная, глухая согласная, звук и шум, произношение, норматив, Национальная программа, учебник, правописание, упражнение..*

METHODOLOGY OF TEACHING VOICED AND UNVOICED CONSONANTS IN THE 2ND CLASS

***Abstract.** This article talks about methods and ways of teaching consonants in 2nd grade mother tongue classes. The classification of voiced and unvoiced consonants was discussed separately, and a series of exercises in the textbook on teaching consonants to elementary school students were analyzed.*

***Key words:** consonant letter, voiced consonant, unvoiced consonant, sound and noise, pronunciation, standard, National program, textbook, spelling, exercise.*

Kirish. Keyingi yillarda qilingan o'zgarishlar, ta'lim sifatini yaxshilash va kelajak avlodga zamonaviy yetuk va salohiyatli, shu bilan birga raqobatbardosh kadrlarlar tayyorlash masalasi haligacha o'z dolzarbligini yo'qotganligicha yo'q. Qabul qilingan yangi qaror va qonunlar ta'lim jarayonida o'quvchi faolligini oshirish,

uni ta'limning faol subyektiga aylantirish, jarayonni birmuncha yengillashtirishga qaratish binobarida, jamiyatga sistemalashtirilgan robotlar emas, balki o'z huquq va majburiyatlarini anglagan, vaziyatga to'g'ri baho bera oladigan faol shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan. Ona tilini o'qitish bo'yicha taklif etilgan "Milliy o'quv dastur"ning o'ziga xosligi u o'quvchida 4 ta lingvistik ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Ya'ni o'quvchining eshitib tushunish, o'qib tushunish, og'zaki va yozma nutq malakasini umumiy holda rivojlantirish darslik mazmuniga kiritilgan eng dolzarb jihat sanaladi. Dasturda grammatika masalalar soddalashtirdi. Endi o'quvchilar grammatik bilimlarni nazariy qoidalarni yodlab emas, balki matn va matn asosida berilgan mashqlarni bajarish orqali egallaydilar. Bunda dasturga kiritilgan matnlarning ahamiyati katta. Ilgari "Ona tili" darsliklari asosini adabiyotdan olingan matnlar tashkil etgan bo'lsa, endilikda o'quvchida ilmiy matnlarni ham tushunish va tahlil qilish ko'nikmasi shakllantiriladi. Iqtisod, texnologiya, tibbiyot, tadbirkorlik, tarix, huquq kabi turli sohalar oid matnlar o'quvchilarda nafaqat sohaga oid lug'at boyligini shakllantirish va bugungi ijtimoiy hayotga ko'zga tashlanayotgan vaziyatlar haqida axborot berishga, qolaversa, muayyan vaziyatlar bo'yicha shaxsiy xulosa shakllantirish va muammoga yechim topishga yo'naltirilgan. Dasturda fanlararo integratsiya shunday shakllantirilganki, o'quvchi ehtiyoj sezadigan har qanday fan doirasida mavzular shakllantirilib, ularda til birliklaridan qanday foydalanish, nimalarga e'tibor berish kerakligi tushuntiriladi. Masalan, "Tarbiya" fani kattalarga hurmat bilan bilan muomalada bo'lishni o'rgatsa, "Ona tili" hurmat ma'nosini ifoda etishda ishlatiladigan so'zlar hamda ularni talaffuz etish ohangini o'rgatadi. Dasturning yana bir ahamiyatli jihati, darslikka qo'shimcha audio matnlar yaratilishini inobatga olingan holda tuzilganligi bo'lib, bu o'quvchilarda sohaga oid ilmiy matnlarni eshitib tushunishlari uchun xizmat qiladi.

Dastlab Milliy o'quv dasturi nima ekanligiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dastur o'quv-me'yoriy hujjatlari: o'quv reja va fanlarning o'quv dasturlari, o'qitish metodologiyasi va baholashni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, darsliklar, o'qituvchilar uchun qo'llanma-O'qituvchi kitoblari, o'quvchi ish daftari, o'quv-metodik materiallari ta'lim resurslarini (shu jumladan texnik va ilmiy manbalarni) ishlab chiqish, takomillashtirish va rivojlantirish uchun asos bo'ladi. U pedagogik amaliyotni va baholash yondashuvlarini qo'llab-quvvatlaydi va ushbu elementlarning barchasini birlashtirishga imkon beradi. Milliy o'quv dasturi quydagilarni belgilab beradi:

1) o'qitish konsepsiyasi va yondashuv, shuningdek, o'rta ta'limning maqsad va vazifalari;

2) har bir sinf uchun qo'yilgan standart/ o'quv faoliyati natijalariga qo'yilgan talablar/kompetensiya;

- 3) o‘qitish usullari va pedagogik amaliyot metodologiyasi;
- 4) o‘quvchilar o‘quv faoliyati natijalarini baholash;
- 5) umuman o‘quv dasturining bajarilishni monitoring va baholash tizimi.

Bugungi ona tili ta’limida “imlo” va “talaffuz” masalasi haligacha o‘z dolzalbligini saqlab qolmoqda .O‘tgan yillar davomida undoshlar va ularning Imlosi borasida qator ilmiy tadqiqotlar olib borildi .Jumladan, G‘ofir Hamroyevning. “Umumiy o‘rta ta’lim tizimida fonetikaga doir o‘quv materiallarining metodik ta’minotini takomillashtirish” nomli PhD dissertatsiyasida undoshlarning talaffuzi va imlosiga alohida e’tibor qaratilgan.Chunonchi, to‘g‘ri talaffuz va imlo kishining madaniyati va savodxonligining birinchi belgisidir. O‘quvchilarga ushbu bilimlar savod o‘rgatish bosqichidan boshlab berib boriladi. 2-sinfga kelib, ularda tovushlar va harflarning bir-biridan farqi, to‘g‘ri va savodli yozish ko‘nikmalari shakllantirib boriladi. Talaffuz qilinayotganda o‘pkadan chiqayotgan havo oqimi ma’lum to‘siqqa uchraydigan, shovqin ishtirok etadigan va bo‘g‘in hosil qilolmaydigan fonemalar undosh fonemalar deyiladi. O‘zbek tilida 23 ta undosh harf, 24 ta undosh tovush bor. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra ular 2 guruhga ajratiladi.

1.Jarangli undoshlar .

2.Jarangsiz undoshlar.

Dars mashg‘ulotlari jarayonida jarangli va jarangsiz undoshlarni ajratishni o‘rgatish tovushlarni talaffuzi qildirish orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilarga ushbu tushunchalarni tushuntirish bir muncha murakkab jarayon bo‘lib, dastlab jarangli va jarangsiz undosh tovushlar o‘zaro farqlanadi.

1.Jarangli undoshlar: b,v,g,d,z,j,g‘,j,y,m,ng,n,l,r.

2.Jarangsizlar:p,f,k,t,s,ch,q,sh,x,h. Bu undoshlar jufti bilan o‘rganish eng maqbul usuldir(8ta). Jarangli va jarangsiz undoshlarning 8ta jufti mavjud. O‘quvchilarga jarangli va jarangsiz undoshlar undosh tovushlar talaffuzini kuzatishga asoslanib tanishtiriladi. Bunda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar ajratiladi. Kuzatishda o‘quvchilar faol qatnashishi va ularga jufti bor jarangli undosh bilan jarangsiz undoshlarni ajratish qanchalik muhim ekanini yaqqol ko‘rsatish uchun faqat bitta undosh tovush bilan farqlanadigan baqir – paqir, gul – kul, dil – til, zina – sina, joy – choy kabi so‘zlardagi tovushlarni taqqoslash maqsadga muvofiq. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilar diqqatini b-p, v-f, g-k, d-t, z-s, j-ch tovushlari biri jarangli, ikkinchisi jarangsiz undoshdan iborat tovush juftlarini hosil qilishiga qaratadi, ularning talaffuzidagi farqni amaliy tushuntiradi (jarangli undosh tovushlarda shovqin va qisman ovoz qatnashadi, jarangsiz undoshlarda esa faqat shovqin eshitiladi). Xattaxtaga quyidagicha yozib qo‘yiladi:

Jufti bor jarangli undoshlar:	b,	v,	g,	d,	z,	j, j,	g‘	
Jufti bor jarangsiz undoshlar:	p,	f,	k,	t,	s,	ch,	sh,	x.

Jufti yo‘q jarangli va jufti yo‘q jarangsiz undoshlar bilan ham o‘quvchilar har xil

fonetik sharoitda tovushlarni talaffuz qilishni kuzatish jarayonida tanishtiriladi. Buning uchun o‘quvchilar so‘z oxirida yoki unli tovushdan oldin kelgan *ko‘l, bilim, otam, olmos; quyon, bino; shifoner, fabrika; tong, singil; qo‘y, kiyik* kabi so‘zlardagi jarangli undoshning talaffuzini taqqoslaydilar va l, m, n, r, ng, y jarangli undosh tovushlar talaffuz qilinganda, ovoz va shovqin eshutilishini, ya‘ni jarangli undosh tovush ekanini, bularning jarangsiz jufti yo‘qligini (jufti yo‘q jarangli undosh tovush ekanini) bilib oladilar. Xuddi shunga o‘xshash usulda o‘quvchilar q, h undoshlari talaffuz qilinganda, faqat shovqin eshutilishini, jarangsiz undosh tovush ekanini, jarangli jufti yo‘qligini (jufti yo‘q jarangsiz undosh tovush ekanini) bilib oladilar. Kuzatish natijasi xattaxtaga quyidagi ko‘rinishda yoziladi):

Jufti	yo‘q,	jarangli	undoshlar: l,	m,	n,	r,	ng,	y
Jufti	yo‘q	jarangsiz	undoshlar: q,					h

Jarangli va jarangsiz undoshlarni jufti bilan yodlatish bolalarda ularni ajratib olish ko‘nikmalarini shakllanishiga yordam beradi. O‘qituvchidan katta mahorat talab etadi. O‘rta maktabning 2-sinflari uchun mo‘ljallangan 2023-yil nashr etilgan S.Kuranov muallifligidagi 2-sinf Ona tili darsligining 3-4-5-6-mavzulari undosh tovushlar va harflar va ularning imlosiga bag‘ishlangan. Dastlab undosh tovushlar va harflar haqida umumiy xulosa beruvchi mashqlar (nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan undoshlarni qo‘ying; aytilishi va yozilishida farq qiluvchi so‘zlarni ko‘chiring; matnda berilgan undoshlar tagiga chizing) berilgan bo‘lib, kegingi darslarda jarangli va jarangsiz undosh tovushlar; j, x va h tovushlari va oxirida harf birikmasi bilan ifodalanadigan undoshlarni mustahkamlovchi topshiriqlar ketma-ketligi berib o‘tilgan: Aytilishi va yozilishi har xil bo‘lgan tovushlarni tagiga chizing. Kitob-kitop, obod-obot, omad-omat, savob-savop. Ushbu mashq orqali b-p, t-d jarangli va jarangsiz undoshlar farqlangan. Aytilishi va yozilishi, farqlanishi ko‘rsatilgan. Kitobining 52-betida quyidagi qoida keltirilgan: “O‘zbek tilida jarangli v jarangsiz undosh tovushlar bor. Ba‘zan talaffuzda jarangli undosh o‘rniga uning jarangsiz jufti aytiladi. Masalan kitob deb aytilsa ham, kitob deb yoziladi”[4.1]. Bu mashq orqali o‘quvchilarning imloviy savodxonligi yanada oshadi. Bu so‘zlarni eshinishi bilan, ko‘rishi bilan ajratib oladi va to‘g‘risini yozadi. “So‘z oxirida kelgan undosh tovushni tekshirish uchun undoshdan so‘z unli qo‘shib aytamiz. Tekshiruvchi so‘z deb so‘z oxirida undoshdan keyin unli tovush qo‘shilgan so‘zga aytiladi :*umid-umidi.*”[4.2]. Shu qoida orqali qaysi harf yozilishini aniqlab olsa bo‘ladi. Bu qoida darslikda mashqlar orqali mustahkallangan. Bolalarning imloviy savodxonligi shakllanishiga bu mashqlar yordam beradi. O‘quvchilar eng ko‘p xatoga yo‘l qo‘yadigan x va h harflarlarni farqlovchi qator mashqlar darslikdan o‘rin olgan. Masalan, 68-betda berilgan 5-mashq orqali o‘quvchilar to‘g‘ri yozish qoidalarini o‘rganish binobarida lug‘at bilan ishlash ko‘nikmasini ham hosil qiladilar: *Imlo lug‘atidan foydalanib, xato yozilgan so‘zlarni tuztib yozing.*

Daraht, behi, jaxon, tahta, handalakm harorat, hat, ho'roz. [4.3] Darslikda harf birikmasi shaklida keluvchi harflar imlosiga alohida e'tibor qaratilgan, bo'g'inga ko'chirish qoidalari tushuntirilgan.

2023-yilda nashr etilgan S.Kuranov muallifligidagi darslik o'quvchilarga bilimlarning barcha sohalarini o'rganishga va dunyo qarashini kengayishiga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga faqat qoidalarni yodlatishdan ko'ra ularni o'quvchilar bilan birgalikda umumkiy xulosalar chiqarilsa, berilgan nazariy bilimlar ongli o'zlashtiriladi. O'quvchilarga undosh tovushlar va harflarni o'rgatish bilan bir vaqtda darslikda "Samarqand- go'zal shahar", "Ulug' allomalar yurti", "Bola odobi bilan aziz", "Mening mahallam" kabi mavzularda ham fikr yuritilgan. 10 ortiq maqollar (Bilmaganni so'rab o'rgangan -olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim; ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar, yaxshi xulq-kishining husni) orqali ham nazariy bilimlar, ham odob-axloq qoidalari tushintirib o'tilgan. Samarqand shahri, uning tarixi, qadimiy yodgorliklarini ko'rsatib beruvchi turli xil matn va rasmlar bilan boyitilgan. Darslikda mavzu doirsida keltirilgan matnlarda Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Al-Farg'oniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy kabi ulug' allomalarimiz, ular yaratgan ixtirolar, fan va jamiyat tarqqiqiyoti va rivoji uchun qo'shgan hissalarini haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Mashqlarda ovqatlanish odobi, muomala madaniyati, farzand tarbiyasi, kattalarga hurmatda bo'lish, qo'shchilik masalalariga alohida to'xlatib o'tilgan; turli matnlar, rivoyat, she'rlar keltirilgan. Xarita bilan ishlash, loyiha yaratishga doir bir qator mashqlar o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytamizki, bu bilimlarni bizdan keyingi avlodlarga meros qilib qoldiramiz. Bilim insonni komillik sari yetaklaydi. Dunyoga yangicha nigoh bilan qarashga o'rgatadi. Ilm insonni hayot yo'lini bir quyosh misoli yoritadigan kuchdir. Shu sababli ilm olishdan aslo tolmaylik. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga undoshlar talaffuzi va imlosini o'rgatish alohida e'tibor talab qilinadigan jaroyon bo'lib, o'quvchilarning savodli va madaniyatli bo'lishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016. – 56 б.
2. Hamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – Т. 2019.
3. ҲАМРОЕВ А. БОШЛАНҒИЧ СИНФ ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ ЛОЙИХАЛАШТИРИШ МЕТОДИК МУАММО СИФАТИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 1. – №. 1.

4. Kuranov Sadullo. Ona tili . Umumiy va o`rta ta`lim maktablari uchun darslik.- Toshkent-2023.
5. Yo`ldosheva D.N. Ona tili ta`limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. – Toshkent: O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013. – 168 b.
6. Hamroyev R. A., Qoldoshev A. R., Hasanova A. M. Methods of teaching 1st grade students to use writing tools effectively //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2021. – T.
7. №. 1. – С. 168-174.
- a. Hamroyev A. Quality and effectiveness for design of learning outcomes in the language teaching //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – T. 11. – №. 1. – С. 549-558.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-том.–Т.: ЎЗМЭ, 2004. – 445-б.